
QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI NOVIKOV ILYOS VALERIYEVICHNING 9 MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI MUNOSABATI BILAN TUMAN AHLIGA YO'LLAGAN TABRIGI



Inson zoti borki, xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'dir.

O'tganlar jasoratini yodga olmoq, e'zozlamoq - xalqimizga xos ezgu fazilat hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli jangohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan, imoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehтиrom ko'rsatish muqaddas odat sifatida qon-qonimizga singib ketgan.

Ushbu umumxalq bayramida biz Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan, Vatan uchun jonini fido qilgan ota-bobolarimiz, front ortida og'ir mehnatni boshidan o'tkazgan qahramon onalarimizni xotirlaymiz.

Afg'oniston urushida halok bo'lganlar va qatag'on qurbonlarini yodga olamiz. Umuman olganda, o'tganlar ruhini shod etamiz.

Shuning bilan birga, mustaqillik yillarida istiqlolimiz yo'lida, xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasi oldida hurmat bajo keltiramiz.

Barchamizga ma'lumki, fashizmni tor-mor etilishida o'zbek xalqi mislsiz qahramonliklar ko'rsatdi. Ikkinchi jahon urushida qariyb, bir yarim million vatandoshlarimiz ishtirok etib, yuz minglab hamyurtlarimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdi, yarim million vatandoshlarimiz janglarda halok bo'ldi.

Dunyo xalqlari boshiga musibat solgan mash'um urush o'sha og'ir kunlarni matonat bilan yengib o'tgan ota-bobolarimizning yengilmas irodasi, cheksiz matonatini toki hayot ekanmiz, yodimizda saqlaymiz, minnatdorlik izhor etamiz!

Albatta, inson bor ekan - xotira muqaddas! **Hech kim, hech narsa unutilmaydi!**

O'zbek xalqi Vatan tinchligi, yurt farovonligi yo'lida jonini fido etgan farzandlarini, jangu-jadalda qahramonlarcha halok bo'lgan jasur o'g'lonlari yodini hamisha qalblarda mangu saqlaydi.

Ushbu qutlug' kunlarda, yurtimizda muqaddas xotira va qadrlash kuni bayrami munosabati bilan avvalo, nuroniy otaxonlarimizni, barcha tumandoshlarimizni chin qalbimizdan muborakbod etamiz!

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-05-09 12:43:08